



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharafova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarning restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i>	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
<i>Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи</i>	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
<i>Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна</i>	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
<i>Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржонова Мохира Илхомжон кизи</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
<i>Berdiyeva Lobar Norqobulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
<i>Esanova Maysara Umirovna</i>	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
<i>Feruza Yusupova Akildjanovna</i>	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
<i>Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
<i>Umarov Xusniddin</i>	

ZAMONAVIY DARSLARDA GURUHLARDA ISHLASH METODIKASI

Berdiyeva Lobar Norqobulovna

Axborot texnologiyalar va Menejment universiteti,
Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy darslarni tashkil etish hamda dars jarayonida guruhlarda ishlash metodikasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Dars, zamonaviy dars, guruhlar, o'quvchi, guruhlarda ishlash.

Abstract: This article highlights the organization of modern lessons and the methodology of working in groups during the lesson process.

Key words: Lesson, modern lesson, groups, student, group work.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы организации современных уроков и методики работы в группах в ходе учебного процесса.

Ключевые слова: Урок, современный урок, группы, ученик, групповая работа.

KIRISH

Darsning mazmuni, tizimi va o'qitish usullarining tanlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. O'quvchi qanchalik yosh bo'lsa, ular shunchalik kam hajmdagi materialni o'zlashtira oladi va darsning tuzilishi hamda qo'llaniladigan usullar shunchalik xilma-xil bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqati yetarlicha ixtiyoriy emas, idroki maqsadga yo'naltirilgan holda barqaror shakllanmagan, tafakkuri esa ko'proq konkret obrazlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarni turli faoliyat turlariga jalb etish, ko'rgazmalilikdan keng foydalanish, o'yin elementlarini kiritish, yangi materialni o'rganish va o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun optimal me'yorni aniqlash zarur. Ushbu omillarning barchasi darsning mazmuni va tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Katta yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan darslar esa ancha murakkab bo'lib, ular ma'ruza, nazorat, so'rash hamda laboratoriya ishlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda darsning quyidagi tiplari mavjud: aralash tipdagi darslar, yangi materialni o'rganish darslari, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darslari, mashqlar va amaliy ishlar darslari, umumlashtiruvchi va takrorlash darslari, laboratoriya darslari hamda o'quvchilar bilimini nazorat qilish, tekshirish va baholash darslari. So'nggi yillardagi izlanishlar ushbu dars tiplari zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatib, mashg'ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zarurligini ta'kid-lamoqda. Chunki bunday mashg'ulotlarda natija oldindan kafolatlanadi, kafolatlangan natijaga erishish uchun maqsad aniq belgilanadi va o'quv jarayonini amalga oshiruvchi texnologiyalar oldindan rejalashtiriladi. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi yo'naltiruvchi, o'quvchi esa faol bajaruvchi va jarayon ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada egallangan bilimlar ijodiy xarakter kasb etib, ko'nikma va malakalar samarali shakllanadi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olish lozim. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik guruhlarda ishlashda "Aqliy hujum", "Rolli o'yinlar", "Munozara ringi", "Yechimlar daraxti", "Sinkveyn", "Klaster", "Kubiklar", "B-B-B", "Zigzag" kabi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda tadqiqotchi olimlar kichik guruhlarda ishlash an'anaviy frontal o'qitishdan bir qator jihatlari bilan ajralib turishini ta'kidlaydilar. Jumladan, guruhli ishlarda o'quvchilar faol ishtirok etib, o'zlariga berilgan topshiriqlar ustida mustaqil fikrlab ishlaydilar. Guruh faoliyatida o'quvchilar o'z o'rtoqlari bilan hamkorlikda ishlaydi, o'zgalarning fikr-mulohazalarini birgalikda muhokama qiladi, fikrlarni tushunish uchun bir-birlarini diqqat bilan tinglashga o'rganadi, savollar beradi va o'zaro yordamlashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Alohida iqtidorli o'quvchilar esa guruhdoshlari e'tiborini keraksiz tarzda jalb qilmasdan, o'z bilim va salohiyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ba'zi o'quvchilar "o'zini ko'rsatmoqchi" yoki "o'qituvchining erkatoyi" degan baholardan cho'chib, o'z qobiliyatlarini namoyish etishga tortinishlari mumkin, guruhli ishlash jarayonida esa bu muammo o'z-o'zidan bartaraf etiladi. A'lochi o'quvchilar esa o'z bilim va tajribalari guruhdoshlari tomonidan o'zlashtirilayotganini ko'rib, yanada ruhlanadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilar guruhda ishlash jarayonida o'zlarini ancha erkin tutadilar. Noto'g'ri javob berib uyalishdan cho'chiydigan bolalar ham o'z bilimlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchi o'z fikrining boshqalar tomonidan qadrlanayotganiga ishonch hosil qiladi, bu esa sinfdagi tortinchoq o'quvchilarning ham faollashishiga olib keladi. Guruh bo'lib ishlash ularda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi. Xususan, 4–5 nafar o'quvchidan iborat guruhda tortinchoq o'quvchi 34–35 nafar o'quvchi oldida javob berish holatiga nisbatan o'zini ancha erkin his qiladi. Ta'lim jarayonida guruhlarda ishlash uchun joyni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Guruhlardagi ish odatdagi sinf joylashuviga muayyan o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Bunda guruhning bajaradigan faoliyati, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning sinfda erkin harakatlana olishi, guruh a'zolarining bir-birini ko'rish va tinglashi uchun qulay sharoit yaratilishi, rang-barang didaktik materiallarning tarqatilishi hamda turli qo'llanma va materiallardan foydalanish qulayligi ta'minlanishi lozim. Guruhlarga topshiriqlar yozma yo'riqnoma shaklida berilganda, yo'riqnomaning har bir o'quvchi uchun tushunarli tilda yozilishi, o'quvchi undan o'qituvchi yordamisiz foydalana olishi uchun aniq va mufassal bo'lishi, topshiriq bilan birga yozma ishini bajarish uchun zarur material va varoqlarning taqdim etilishi hamda kutiladigan natijalarning aniq ko'rsatilishi talab etiladi.

O'quvchilar guruhda ishlash davomida topshiriqlarni bajarishda guruhning barcha a'zolari bilan teng ishtirok etishi, zarur bo'lganda o'qituvchidan yordam olishi, o'rtoqlariga ko'maklashishi hamda guruh a'zolarining fikrlarini diqqat bilan tinglashi lozim. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga ixtiyoriy yoki noformal belgilar asosida tuzilgan aralash guruhlar ko'rinishida, o'quv yutuqlari darajasi bo'yicha, psixologik jihatdan bir-biriga mosligi asosida, shuningdek, soniga ko'ra 2–5 kishilik (uncha katta bo'lmagan vazifalar uchun) va 5–7 kishilik (murakkab vazifalar uchun) hamda vaqt omiliga ko'ra ajratish mumkin. Dastlab guruhlar o'qituvchi tomonidan tuziladi. Keyinchalik o'quvchilarda guruhda ishlash ko'nikmalari shakllangach, ular bilan turli didaktik o'yinlar va dars munozaralarini tashkil etish mumkin. Guruh tuzishning bir qator usullari mavjud bo'lib, jumladan, "Sherigingni top", "Cho'p tanlash", "Yoqtirganingni tanla" metodlari qo'llaniladi. Birinchi marta guruh sharoitida ishlashni tashkil etib, o'quvchilarni bunday faoliyatga ko'niktirgandan so'ng, o'qituvchi guruhni tashkil etishning turli shakllari va o'yin usullaridan foydalanishi mumkin. Guruh tuzishning "Sherigingni top" usulida sinf o'quvchilari to'rtta kichik guruhga ajratiladi. Bunda o'quvchilar guruhlarga birlashish uchun fasllar yoki ertak qahramonlari nomlari yozilgan kartochkalarni tanlaydilar. Masalan, "Yoz", "Kuz", "Qish", "Bahor" so'zlari yozilgan kartochkalarni olgan o'quvchilar fasllar nomi bo'yicha guruhlarga bo'linadilar yoki "Rustamxon", "Donishmand", "Olim", "Bog'bon" kabi ertak qahramonlari nomlari yozilgan kartochkalar orqali guruhlar shakllantiriladi.

XULOSA

O'quvchilar kichik guruhlarda ishlaganda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodlar zamonaviy ta'lim metodlari hisoblanib, ularni qo'llash natijasida o'quvchilarning aqliy faolligi oshadi, tashabbuskorlik shakllanadi, xotira jarayonlari faollashadi hamda o'z fikrlarini og'zaki bayon etish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU, 2003.
2. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. TDPU, 2000.
3. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.